

Amerika Qo'shma Shtatlarining ta'lim tizimi

Sevinch Otabek qizi Mo'minova
mominovasevinch155@gmail.com

Aziza Anvar qizi Mamasaidova
mamasaidovaaziza127@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahondagi eng rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lmish Amerika ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, ta'limning turlari va ularning bosqichlari ketma-ketlikda bayon qilingan. Unda maktabgacha ta'lim, boshlang'ich maktab, o'rta maktab, oliy ta'limning bir qator xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ta'lim mazmuni, maqsad, vazifalar, ta'lim turlari

The educational system of the United States of America

Sevinch Otabek kizi Mominova
mominovasevinch155@gmail.com

Aziza Anvar kizi Mamasaidova
mamasaidovaaziza127@gmail.com

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after
Alisher Navoi

Abstract: This article describes the unique features of the American education system, one of the most developed countries in the world, the types of education and their stages in a sequence. It reveals a number of features of preschool education, primary school, secondary school, and higher education.

Keywords: educational system, educational content, goal, tasks, types of education

Amerika Qo'shma Shtatlari dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlardan biridir. AQSH 50 ta shtat va bitta federativ okrugdan tashkil topgan federativ respublika hisoblanadi. U o'zining barqaror siyosatiga ega. AQSH har bir kishi uchun cheklanmagan imkoniyatlar taklif etadigan davlatdir. Amerikada davlatning eng muhim tayanch nuqtasi sifatida ta'lim tizimi e'tirof etiladi. Bu davlatning ta'lim tizimi dunyodagi eng yaxshi ta'lim tizimlaridan biridir. AQSH talabaning bilim olishi uchun boshqa davlatlarga qaraganda ko'proq pul sarflaydi. Bu AQSH ta'lim tizimining

boshqalardan yaxshi bo'lishining sabablaridan biridir. Amerika qo'shma shtatlarida savodxonlik darajasi taxminan 99 foizni tashkil qiladi. Bu davlatda faoliyat yuritayotgan 120 ming maktabning 30 foizi xususiy maktablardan iborat. Maktablar o'z navbatida uy, xususiy va davlat maktablariga bo'linadi. O'quvchilarning aksariyat qismi davlat maktablarida ta'lim oladi. Bu umumiy o'quvchilar sonining taxminan 87 foizini tashkil etadi. AQSH da davlat maktablarida ta'lim olish bepul tarzda amalga oshiriladi.

Biz Amerika ta'lim tizimi haqida so'z yuritar ekanmiz, u o'z navbatida alohida bosqichlardan tashkil topgan. Bular quyidagilar:

1. Maktabgacha ta'lim;
2. Boshlang'ich maktab;
3. O'rta maktab;
4. Oliy ta'lim.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning yoshi 3-5 yoshni tashkil qiladi. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning tarbiyasi bilan ularning onalari shug'ullanadi, ammo ularga hech qanday imtiyoz berilmaydi. Amerikada maktabgacha ta'lim tizimining davlat va xususiy turlari mavjud, lekin, bog'chalar kichik va kam rivojlangan. Bog'chalarning kam rivojlanganligi sababli onalar bolalariga enaga yollashadi. Bu esa haftasiga 200 dollarga tushadi. Amerika bog'chalarida yagona bir dastur mavjud emas. Bog'cha tarbiyalanuvchilari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va kerakli jihozlarni ularning ota-onalari olib kelishadi. Bolalar 5 yoshdan so'ng, "Kinder garde" deb nomlangan ta'lim muassasalarida ta'lim olishni boshlaydi.

Boshlang'ich maktab 1-8-sinflarni o'z ichiga oladi. Bunda 6 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladi. Boshlang'ich maktabda umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish muammolari hal etiladi. Amerikada boshlang'ich maktabda ta'lim olish muddati turli shtatlarda turlicha belgilangan. Masalan, to'rt, besh, olti va sakkiz yil. Bu kabi maktablarda turli xil to'garaklar mavjud bo'lib, ammo ularga haq to'lash talab etiladi.

O'rta maktab 9-12- sinflardan iborat bo'ladi. Bunday maktablarda 14 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladi. Amerikada o'rta maktablar ikki bosqichdan iborat: quyi va yuqori. Maktablarning aksariyati bir yoki ikki semestr uchun ishlaydi. Birinchi semestr sentyabrdan dekabrgacha bo'ladi, ikkinchi semestr yanvardan maygacha davom etadi. Ba'zi maktablar to'rt davr yoki to'rt chorak davomida ishlaydi. Shartlar sentyabrdan dekabrgacha, yanvardan martgacha, mart yoki maydan iyungacha. Boshlang'ich va o'rta maktablarda maktab kuni ertalab soat sakkizdan uchgacha davom etadi.

AQSH dagi maktablar

- Bolalar besh yoki olti yoshdan maktabga borishni boshlashadi va o'n yetti yoki o'n sakkiz yoshgacha tugatishadi.

- Talaba uzaytirilgan ta' til yoki darsning sustligi sababli darsni takrorlashiga to'g'ri keladi, ammo bu juda kam.

- Hammasi bo'lib 12 yillik o'qish.

- Boshlang'ich maktab birdan beshgacha baholanish tizimiga ega.

- O'rta maktabda oltidan sakkizgacha baholar mavjud.

- O'rta maktabda to'qqizdan o'n ikkigacha baholar mavjud.

Amerikada o'rta maktabdan keyingi ta'lim oliy ta'lim hisoblanadi. Bu davlatda oliy o'quv yurtlari funksiyasiga ko'ra 6 turga bo'lingan.

1. Tadqiqot universitetlari: birinchi va ikkinchi guruh, doktorlik darajasini beradi. Bu universitetlarning birinchi va ikkinchi guruhlarida orasidagi farq federal moliyaviy yordam hajmi bilan bog'liq, ya'ni ikkinchi guruh oliy o'quv yurtlariga nisbatan kamroq mablag' ajratiladi.

2. Doktorlik universitetlari: birinchi va ikkinchi guruh. Ta'limning barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. Birinchi va ikkinchi guruh orasidagi farq ilmiy darajalar soniga bog'liq: birinchi guruh uchun 5 ta yo'nalish bo'yicha 40 ta doktorlik darajasi, ikkinchi guruh uchun 3 ta yo'nalish bo'yicha 10 ta doktorlik darajasi beriladi.

3. Magistrlik o'quv muassasalari: bu o'quv muassasasini ko'p tarmoqli hamda keng qamrovli universitet va kollejlarda atashadi.

4. Bakalavr oliy o'quv yurtlarining 4 yillik kollejlari: juda katta to'lov asosida o'qitiladigan, mamlakatning eng nufuzli universitetlari magistraturalariga kadrlar yetkazib beradigan elitar ta'lim muassasalari.

5. Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlari yoki bakalavr diplomi bilan qabul qilinadigan kasbiy maktablar.

6. Ikki yillik kollejlarda va institutlar.

AQSH ning ta'lim muassasalari talabalarga ko'plab mutaxassisliklarni taklif qiladi. Odatda ko'pchilik xorijiy talabalar biznes, menejment va matematika kabi yo'nalishlarni tanlashadi. Amerika oliy ta'limining asosiy xislatlaridan biri bu birdaniga mutaxassislikni tanlamasdan, bir yoki ikki yillik umumiy ta'lim kurslaridan keyin tanlash imkoniyatining mavjudligidir. O'qishga hujjat toshirish talablari talabalarning qayerga: universitet, tanlov kursi yoki kollejga topshirishiga qarab farqlanadi. Shu bilan birga har bir xorijiy talaba ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi IELTS yoki TOEFL sertifikatlariga ega bo'lishi kerak.

Amerikada o'quv yili 180 kun davom etadi. Oliy o'quv yurtlari ta'lim sifati jihatidan farq qiladi. Ayvi ligasining 8 ta universitetlari AQSH da ham, butun dunyoda ham eng nufuzli universitetlardan biri hisoblanadi. Amerika 2010-yil holatiga ko'ra kollejda ta'lim olgan kattalar ulushi bo'yicha sanoati rivojlangan davlatlar orasida 10-o'rinni egallaydi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda ilg'or hisoblangan Amerika ta'lim tizmining xususiyatlari, ketma-ketlik bosqichlari, oliy ta'limning asosiy funksiyalari ochib berilgan, bundan tashqari darslar uchun ajratilgan

soatlar hajmi va sifati haqida ma'lumotlardan mahalliy tajribani hisobga olgan holda zarur xulosalarga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1/2), 92-96.
2. Аслонов И. (2022) «Бобурнома» бадиий – психологик тасвир муаммоси объекти сифатида. О‘zМУ xabarlar. Toshkent – 2022. №1/5.
3. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. *Eurasian Scientific Herald*. Volume 7| April, 2022. ISSN: 2795-7365.
4. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma" *Central Asian journal of theoretical and applied sciences* Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.
5. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*,3, 710-719. (2023)
6. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*,3, 734-745 (2023).
7. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. *Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995
8. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. *International Journal of Inclusive and Sustainable Education*. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414
9. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.
10. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 240–242. Retrieved from
11. Jobborova Gulnoza Kadamovna. PEDAGOGIK ODOB-AXLOQ VA TALABA XULQ – MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(1/2), Jan., 2023. 97-105.